

**Xo'jaobod tuman axborot-kutubxona
markazi
axborot-bibliografiya xizmati**

**Imom-ota tarixi haqida ma'lumotlar
“Muqaddas qadamjoy”
(Yo'l ko'rsatkich)**



Xo'jaobod 2025

Krish

Har bir inson tug'ilib o'sgan makonini-Vatanini ozod, obod va farovon ko'rsam, deb orzu qiladi va o'sha orzusining ro'yobi uchun umri davomida kurashadi.Ushbu ko'rsatkich Xo'jaobod tumanida joylashgan Imom-ota ziyoratgohi O'zbekistonda tarixi uzoq asarlarga borib tarqaladigan go'zal va so'lim maskan qadamjoylarni kitobxonlarga aniq dalillar asosida tushuncha berishga xarakat qilamiz,

Zamondoshimiz, yozuvchi va tarxichi Xurshid Davron ta'biri bilan aytganda: «Har birimizga bolalikdanoq kasallik tarixi ochiladi. Haqiqiy shifokor bemorning o'sha kasallik tarixini o'rganib chiqibgina to'g'ri xulosa chiqara oladi.Tarx insoniyat taraqqiyotining kasallik varaqasi emas, balki uning dardu quvonchlari, g'alabayu mag'lubiyatlari, yaratuvchilik qudratiyu barbod etuvchi qora kuchlari, jasorat va xiyonat, oq va qoraning shddatli to'qnashuvlari haqida hikoyalar bitilgan kundalik daftaridir»

Ko'rsatkichda Imom-ota qishlog'I geografik o'rini, tabiiy sharoiti haqida hamda qishloq tegrasida o'rin olgan Mozorbiva ziyoratgohi,Qatronungur, Opqoqli g'or, Sassiqbuloq, Achchamazorbuloq, Qozonbuloq, Beshungur, Xon yo'li, Xon bog'i kabi mashhur joylar to'g'risida eldan-elga o'tib kelgan ota bobolarimizni hikoyalar asosida ma'lumotlar yoritilgan.



Imom – ota ziyoratgohi haqida qisqacha ma'lumot

Imom ota ziyoratgohi Xo'jaobod tumanidan 25 km Janubda joylashgan ziyoratgohning kelib chiqish tarixi 7 asr yarmiga to'g'ri keladi. Keyinchalik g'or og'ziga maqbara qurilgan. Bu muqaddas maqbaraga kelib jonli so'yib ehson qiladilar. 1982 yillardagi olib borilgan tadqiqotlariga to'plangan ma'lumotga ko'ra qadimgi bino uning o'ymakor naqishlari bo'lib qisman ta'mirlangan kapital ta'mirga muhtoj xolatda bo'lgan 18 asrga oid ziyoratxona xonaqoh 19 asr ohirlarida Andijonlik Mahmudboy tomonidan qayta ta'mirlangan. 1959 yil va 1980 yillarda joriy ta'mirlangan. 1982 yilda me'moriy yodgorlik sifatida Davlat muhifazasiga olingan. 1989 yil Xamza kalxozi raisi No'monjon Ummataliey hamda

shayih Ostanaqul Tursunovlar tomonidan maqbara va majid qayta qurilgan. Andijon viloyat hokimi Shuhratbek Abdurahmonov tashabbusi bilan 2018-2019 yillarda 1 mlyard 800 million so'm qayta rekonstruksiya uchun ajratildi. Ajratilgan mablag'lar hisobidan ziyoratgoh binosi zamonaviy ko'rinishga olib kelindi.

Xo'jaobod tumani Tosh-ota MFY tog'li hududda joylashgan ziyoratgoh joylashgan Islom olamida o'rin tutgan Imom Muhammad Xanafiya nomi bilan atalib kelingan tadqiqotchilardan N. Abdulaxadov va V. Azimovlarning "Oltiariq ziyoratgohlari" hamda "Nasibanomai Muhammad Xanafiya" kitoblarida yozilishicha Islom lashkarboshisi Xazrat Alining o'g'li Muhammad Xanafiya 1700 yilda vafot etgan. Xurosoni zabt etib, aholisining islomga kirishda xizmatlari katta bo'lganligi uchun "Xuroson ota", "Imom-ota" nomini olgan shuning uchun bu o'lkada Bobo xuroson, Imom-ota nomlari bilan bog'liq diqqatga sazovor joylari mavjud. Imom Xanafiya 700 milodiy sanada vafot etgan. Asli qabri esa fors qo'ltig'idagi tuz shahrida. Rivoyatlarda aytilishicha, uning onasi tarbiyalaydi va otasining tanmay ulg'ayadi. Otasini izlab, yo'lga chiqadi. Taqdir taqozosi bilan kichik bir nizodan so'ng, tanimagan holda, avval akalari Imomi Xasan va Imom Xusayin bilan kurashga tushishiga to'g'ri keladi va ularni engadi. So'ng otasi Xazrati Ali bilan uzoq kurashadi. Xazrati Alining ko'zi raqibining bo'ynidagi

o'zi bir vaqtlar bibi Xanifaga nishona sifatida bergan tumorga tushadi. Shu tariqa ota bola topishadi. Biroq Xanafiya o'z otasi bilan kurashganligini bilgach, otaga nisbatan behurmarli qilgani uchun o'zini gunohkor hisoblab shu ketganicha bu yurtlarga kelib tog' bag'riga kirib g'oyib bo'lgan. To qiyomatgacha tirik diyladi. Shu bois, u el orasida "G'oyib bo'lgan Eshon" Yoxud "Yashringan Eshon" nomini ham olgan. Ziyoratgoh Imom Xanafiya qadamjoylaridan bo'lib, rivoyatlarda u zotni joyidagi g'orga kirib ketib g'oyib bo'lgan deyiladi. Bino yonidagi sag'ana 1900 yillarda shu joyni talash paytida chiqqan ko'hna jasad qoldiqlari bo'lib Azizlardan birini jasadi tepasiga qilinib qayta dafin etilgan va ustiga oddiy sag'ana qilinadi. Imom-ota qishlog'I haqida to'liq ma'lumot 2014 yilda R. Nazirov va Sh. Xakimovlar tomonidan "Imom-ota qishlog'" nomli kitobida batafsil keltirilgan.



“Orzu g’ori”

Bu g’or Imom-ota ziyoratgohidan 500 metr uzoqlikda 500 metr balandlikda joylashgan g’or og’zi diametric 12 metr uzunligi 7 metr bu erga kelganlar o’z orzu va istaklariga erishadi.




Shirin buloq

Bu buloq Imom – ota ziyoratgohida 1,5 km janubiy sharqda joylashgan er ostidan o’tilib chiqadi yozda muzdek qishda iliq bo’ladi. Bu erga kelgan dam oluvchilar bu suvni ichib rohatlanadilar buyrak va shamollash kasalligi borlar shu suvda parxez tutib davo topishadi.



BESHUNGIR

Bu ungir chilmahram tog' tizmalaridagi ungirlarning eng kattasidir. Bu ungir er sarxidan 1200 metr balandlikda joylashgan. Dastlab ungir og'zidan 7 metr pastga tushulganda diometri 40 metr bo'lgan sahnaga duch kelasiz. Ungir og'zi 3 ga bo'linadi. Har biriga kirsangiz 5 ga bo'linadi. Hozirgacha hech kim oxiriga etmagan.



“UY TOSH”

Rivoyatlarda keltirishcha bu tosh Imom Xanafiya otgan toshi deb yurtiladi toshning bunday deb nomlanishining boisi Toshning xajmi uy borabarida bo'lganligi. Xalq orasida “Uy Toshi” nomini olgan, xozirgi kunda 3/2 qismi er ostiga ko'chgan .”Uy Toshi” Imom-ota ziyoratgohidan 300 metr shimolda joylashgan. Toshning er yuzasida

qolgan qsmning diametric 10 metrni tashkil etadi og'rligi 45 tonna.

Xulosa

Hurmatli kitobxon, biz Imom-ota qishlog'I tarixini, haqdagi qadimiy rivoyatlar va asotirlarni, qishloqning tabiati va uning g'o'zalligini, elining mehmondo'stligini sizga yetkazishga harakat qildik.Ming marta eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rgan yaxshi, deydi dono xalqimiz.Kelib, o'z ko'zingiz bilan ko'ring va qishloq taboattidan bahra oling, sayohatlarga chiqing.Bizning yozganlarimiz haqiqat ekanligiga siz ham ishonasiz.

Foydalangan adabiyotlar

- 1.A.Irisov.Chahoryor/A,Isrisov//Muloqat jurnali.-1993.-b 3-4.
- 2.Balqiz Aladdin.Muhammad qissasi/B.Aladdin// sirli olam jurnal.-1991.-2-son
- 3.Imom ota qishlog'I taixidan lavhalar./Rahimjon Nazirov,Shukurillo Hakimov/ Andijon, Hayot nashriyoti.-2014.
- 4.N.Ibrohimov.Hazrat Ali /N.Ibrohimov // Muxbir jurnali.1990.-10-son
- 5.A.Nabiyev,T/Xurilov.Bobur tavof aylagan diyor.Mehnat.-1993
- 6.B.Aliyev,T.Rasulov.Vatan yurakdagi javohir. Toshkent. O'qituvchi-1996.
- 7.Sh.D.Otaboyev,T.I.Iskandarov.Kommunal gigiena Toshkent.-1994

Tuzuvchi: M. Obidova.